

## NEFT VA GAZ SANOAT KORXONALARIDA NEFT VA GAZ QAYTA ISHLASHNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

*Mamatqulov N.N,*

*M. Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti kimyo fakulteti dotsenti*

*Pattayeva Zilola Sanjar qizi +99894-366-07-76*

*Darxanova Sevinch Abduvoxid qizi +99899-822-31-01*

*I. Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston respublikasida neft va gaz sanoatlarida neft va gazni qayta ishlashni rivojlantirishdagi muammolar va ushbu muammoni yechishda zamonaviy resurslarni tejash texnologiyalarini qo'llash, shuningdek, xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlikda yirik loyihalarni amalga oshirish, neft-gaz kompleksini jadal sur'atlarda rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli harakat dasturlarining amalga oshirilishi haqida ma'lumot keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Jarayon, texnologiya, neft va gaz, tozalash, oltingugurt, kondensat, mahsulot, eksport, zamonaviy, rivojlantirish.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini jahon andozalari darajasiga etkazish, ishlab chiqarishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash hamda neft va gazni qayta ishlash bo'yicha texnologik jarayonlarni rivojlanishining asosiy vazifalardan biridir [1,2].

Hozirda O'zbekistonning gazni qayta ishlash quvvatlari 3 ta korxonada mujassamlangan, buladan: Muborak gazni qayta ishlash zavodi, "SHo'rtan-neftgaz" USHK va yangi ishga tushirilgan "SHo'rtangaz-kimyo" kompleksi.

Muborak gazni qayta ishlash zavodidagi asosiy texnologik jarayonlar beqaror (xom) gazni tozalashga, konlarda past haroratli separasiya yo'li bilan olinadigan beqaror gaz kondensatidan suyultirilgan gaz olish hamda Klaus usuli va bevosita achitish yo'li bilan kislotali gazdan oltingugurt olishga asoslangan. Har yili ushbu zavodda 25 mlrd.kub. metrdan ortiq tabiiy gaz qayta ishlanadi. Kelgusida gazni oltingugurtdan tozalash bo'yicha yangi zamonaviy bloklarning ishga tushirilishi ko'zda tutilgan

"SHo'rtanneftgaz" ning qayta ishlovchi qurilmalarida oltingugurtdan tozalashga asoslangan texnologiya qo'llaniladi.

"SHo'rtangaz-kimyo" kompleksi har yili 4,7 mlrd.kub.m. gazni qayta ishlashga, 130 ming t. polietilen, 141 ming t. suyultirilgan gaz, 140 ming t. gaz kondensati, shuningdek, 5,2 mlrd.kub.m. gaz va 4 ming t. oltingugurt ishlab chiqarishga mo'ljallangan. Tozalangan gaz magistral gaz-transport sistemasiga yuboriladi [3,4].

Ishlab chiqariladigan ushbu mahsulotlarga tashqi bozorda ham talab katta, ya'ni suyultirilgan gaz yuqori sur'atlarda eksport qilinmoqda. 2010 yilda 20 mln. AQSH dollaridan orgiq summadagi suyulgirilgan gaz eksport qilindi.

SHo'rtan GKK 150 turdagi yuqori, o'rta va past bosimli polietilenni ishlab chiqarishga mo'ljallangan. "SHo'rtan gaz-kimyo" kompleksida ishlab chiqarilayotgan polietilendan respublika ichki ehtiyojlari uchun ham, chet elda ham keng foydalanilmoqda.

Ushbu kompleks mahsulotlaridan yangi ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirishda, ya'ni plyonkalar ishlab chiqaruvchi zavodlarning mavjud quvvatlarini oshirishda, kabel sanoati ehtiyojlarini qondirishda, shuningdek, to'qima qoplar hamda oziq-ovqat va sanoat tovarlarini o'rab-bog'lashda ishlatiladigan lentalar ishlab chiqarishni ta'minlashda keng foydalaniladi.

SHo'rtan GKK mahsulotlari keng assortimenti mutlaqo yangi ishlab chiqarishlar, yangi texnologiyalarni joriy etish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni faol rivojlantirishning o'ziga xos katalizatori bo'lgani holda, O'zbekiston iqtisodiyoti ko'plab tarmoqlari barqaror va samarali rivojlanishini ta'minlaydi, bu Respublikaning eksport salohiyatini oshirish imkonini beradi.

"Sho'rtangaz-kimyo" kompleksining ishga tushirilishi bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilab berilgan strategik vazifalardan birining bajarilishi ta'minlanadi, bu vazifa - xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida mamlakatning eksport salohiyatini oshirishdan iborat.

Geologiya-razvedka ishlarining samaradorligini oshirish, uglevodorod xomashyosining razvedka qilingan zahiralar hajmini oshirish, bevosita xorijiy sarmoyadorlarni neft-gaz sektoriga jalb qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida 2000 yil 28 aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Neft va gaz konlarini razvedka qilish hamda ularni qazib chiqarishga bevosita xorijiy sarmoyadorlarni jalb etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni chiqdi. Ushbu farmon xorijiy kompaniyalar faoliyati uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratish bilan birga, Respublika hududida shartnoma munosabatlari va konsessiya faoliyati uchun asos hisoblanadi. Farmonga ko'ra, xorijiy sarmoyadorlar uchun soliq stavkalarini pasaytirish va qator yangi rag'batlantirishlar, shuningdek, sarmoyadorlar uchun boy neft-gaz mintaqasi - Ustyurtda va boshqa istiqbolli konlarda koncessiya bo'yicha razvedka qilish uchun maydonlar taklif etildi.

Chet el ekspertlarining baholashlariga ko'ra, O'zbekistonda "O'zbek-neftgaz" kompaniyasining harakatda bo'lgan mavjud konlarida neft va gaz qazib chiqarish hajmini sezilarli darajada oshirish imkoniyatlari bor. Kompaniya tomonidan xorijiy sarmoyadorlar bilan qo'shma loyihalarni amalga oshirish bo'yicha quyidagi takliflar ishlab chiqildi va tayyorlandi: "Sofregaz" (Fransiya) - "Siquv-kompressor stanciyasi qurish bo'yicha Zevarda, Qultog', Pamuk konlarini jihozlash"; VSI Industries (AQSH)

- "Gazli" er osti gaz omborida siquv-kompressor stanciyasini qurish"; "Tu-Xa" (Xitoy)  
 - "Gazli konida neft qazib chiqarish hajmini oshirish"; "Dun'shen" (Xitoy) -"Andijon viloyatining uzoq vaqt ishlab-tayyorlashga mo'ljallangan konlarida geologiya-razvedka ishlarini olib borish va neft qazib chiqarishni jadallashtirish".

Neft-gaz tarmog'ini rivojlantirish istiqbollari rivojlanmoqda. O'zbekistonning neft-gaz tarmog'ini rivojlantirishning uzoq muddatga mo'ljallangan strategik maqsadi iste'molchilarni yoqilg'i-energetika resurslari bilan ishonchli ta'minlash va tarmoqning eksport salohiyatini oshirishdan iborat.

"O'zbekneftgaz" kompaniyasi tomonidan uzoq muddatga mo'ljallangan qidiruv burg'ulash, parametrik burg'ulash, istiqbolli neft-gaz mintaqalarida seysmik-razvedka ishlarini olib borish, uglevodorod xomashyosi zahirapari o'sishini ta'minlash chora-tadbirlari ko'rilmogda.

Eng zamonaviy resurslarni tejash texnologiyalarini qo'llash, shuningdek, xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlikda yirik loyihalarni amalga oshirish, neft-gaz kompleksini jadal sur'atlarda rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli harakat dasturlarining amalga oshirilishi O'zbekistonning yoqilg'i-energetika mustaqilligini mustahkamlash va milliy iqtisodiyotning jahon iqtisodiyotiga integrasiyalashuv jarayonlarini tezlashtirish imkonini beradi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Pattayeva Z.S., Mamatkulov N.N. method of selective purification of fuel oils with phenols// Education, science and innovative ideas in the world. Magazine issue No. 39, Part-2\_ February –2024 –P. 101-104.
2. N.N. Mamatkulov. Superfos o'g'it ishlab chiqarishda klassifikator qurilmasining hisobi// Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. volume 1 | issue 5 issn 2181-1784. Scientific Journal Impact Factor. SJIF 2021: 5.423.
3. Mamatkulov N.N. Chemical Treatment of Water In Ammophos Production Plants// The American Journal of Agriculture and Boimedical Engineering (ISSN – 2689-1018) Published: June 18, 2021.
4. Mamatkulov N.N., Abdushukurov A.K., Pattayeva Z.S. Methods of determination of antioxidant properties of phenolic compounds// scientific research and society problems. Vol. 5 no. 1 (2023): Pp. 7-9.